
LOYSON MAHALLA FUQAROLAR YIG'INIDA ELEKTR TA'MINOTI YAXSHILANMOQDA



Jarayon

Bugungi kunda Qo'shtepa tumanida mahallalarning infratuzilmasini yanada yaxshilash, aholini uzoq yillardan buyon qiynab kelayotgan muammolarni hal etish maqsadida ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Mazkur ishlar faqatgina bir maqsadga aholining turmush sharoitlarini yaxshilash, mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan. Ana shunday ishlardan biri bugungi kunda tumandagi Loyson mahalla fuqarolar yig'ini hududida amalga oshirilmoqda.



Xususan, ayni kunlarda mahalla hududidagi Mulkobod ko'chasida 21 dona temir-beton tayanch ustunlari va 250 kVtli 1 dona yangi transformator o'rnatish, shuningdek, zamonaviy SIP kabel tarmog'i tortish, ishlari olib borilmoqda.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-09-11 15:46:26